

MAHALLADA OILALAR VA XOTIN-QIZLARNI IJTIMOY HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI

Reja:

1. Oilalar va xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning mazmun-mohiyati
2. Oilalar va xotin-qizlarga ko'rsatiladigan ijtimoiy himoya turlari
3. Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish
4. Mahallada xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etishda "Ayollar daftari" tizimining o'rni
5. Mahalla xotin-qizlar faolining oilalar va xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishda hamkorlik yo'nalishlari

1. Oilalar va xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning mazmun-mohiyati

Ehtiyojmand aholi, xususan, ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar va xotin-qizlarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, himoya qilish jamiyatda taraqqiyotning eng asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ham ijtimoiy himoya muhtoj aholini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, samarali va sifatli ijtimoiy xizmat ko'rsatish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 1-moddasida O'zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilangan. Shunga muvofiq, 2023-yil 1-iyunda aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish bo'yicha farmon qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. O'z navbatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, mamlakatimizda aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilishda **"har bir oila va inson taqdiriga alohida professional yondashish"** va **"buni mahalla darajasida manzilli, shaffof va adolatli tashkil etish"**¹ zarur.

¹ Ijtimoiy himoyaning yangi tizimi inson qadrini ta'minlashga xizmat qiladi – Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 20-fevral kuni o'tkazilgan ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruza // <https://president.uz/oz/lists/view/7041>

Mahallada oilalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish mahallada faoliyat yuritayotgan deyarli barcha xodimlar – mahalla raisi, mahalladagi xotin-qizlar faoli, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodimning ham asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mahallada ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning asosiy obyektini ehtiyojmand insonlar va oilalar hisoblanadi.

O'zbekistonda oila o'zining muqaddas ekanligi, insonlarning eng oliy qadriyatlaridan biri ekanligi, hayotning mazmunini belgilashi bilan xarakterlanadi. Oilaning ahamiyati va uning davlat tomonidan har tomonlama, jumladan ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi Konstitutsiyamizning **76-moddasida** ham o'z aksini topgan. *“Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.²”*

Shundan anglashimiz mumkinki, oilalarni har tomonlama, shu jumladan, ijtimoiy jihatdan himoya qilish davlatning ijtimoiy siyosatining asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda ijtimoiy himoya tushunchasiga e'tibor qaratsak.

Ijtimoiy himoya – davlat va jamiyatning qariligi, sog'lig'i, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik uchun vositalar bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga muhtoj fuqarolar to'g'risida g'amxo'rliqi³. Ijtimoiy yordam odamlar farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan vaziyatlarning oldini olish, boshqarish va bartaraf etish bilan bog'liq bo'lib⁴, ma'lum guruhlarni qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan davlat xizmatlari to'plamini o'z ichiga oladi⁵.

Ijtimoiy himoya – ijtimoiy zaruriy faoliyat bo'lib, odamlar, ijtimoiy guruhlarga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan⁶.

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son // <https://www.lex.uz/docs/-6445145>

³ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

⁴ UNRISD. 2010. Combating Poverty and Inequality: Structural Change, Social Policy and Politics.

⁵ "EUROPEAN SOCIAL SERVICES". scholar.googleusercontent.com

⁶ Normamatova M. Ijtimoiy ish nazariyasi. – SamDU 2020

Zamonaviy dunyoda davlatlar oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bir qator muammolarga duch kelmoqda. Bunga oila tarkibidagi o'zgarishlar, migratsiya jarayonlari, iqtisodiy beqarorlik va zamonaviy texnologiyalar ta'siri kiradi. Davlatlar mazkur o'zgaruvchan sharoitlarni hisobga olgan holda ijtimoiy yordamga nisbatan o'z yondashuvlarini moslashtirib bormoqda.

Oilalar va xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish jarayonida ijtimoiy himoya qilishni ikki asosiy shaklini ajratib olish lozim:

1. Umumiy ijtimoiy himoya – Umumiy ijtimoiy himoya barcha oilalarga, ularning ijtimoiy holati, kelib chiqishi yoki iqtisodiy imkoniyatidan qat'iy nazar davlat tomonidan ma'lum darajada taqdim etiladi.

Misol uchun, farzand tug'ilganda beriladigan moddiy yordam – “suyunchi puli”, bepul va majburiy maktab ta'limi, oliy ta'limda davlat granti hisobidan o'qish imkoniyati, oilaviy poliklinikalarda bepul tibbiy xizmatdan foydalanish, bepul vaksinatsiya imkoniyati barcha oilalar va ularning a'zolari uchun davlat tomonidan kafolatlanadi;

2. Maxsus ijtimoiy himoya – Maxsus ijtimoiy himoya ehtiyojmand, og'ir ijtimoiy, iqtisodiy vaziyatdagi oilalarga taqdim etiladi. Bunday oilalar davlat tomonidan maxsus ijtimoiy himoya bilan ta'minlanadi, davlat ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar uchun belgilangan tartibda ko'mak beradi. Mazkur prinsip yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning birinchi moddasida belgilab qo'yilgan “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida kafolatlab qo'yilgan.

Ta'kidlash o'rinliki, oila va xotin-qizlar tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, soha xodimlari, mahalladagi xotin-qizlar faollari har ikki shakldagi aholini ijtimoiy himoya qilishda, davlatning mazkur yo'nalishdagi siyosatini amalga oshirishda ishtirok etadi.

O'z navbatida savol paydo bo'ladi – maxsus ijtimoiy himoya qanday toifadagi oilalar va insonlarga taqdim etiladi? Maxsus ijtimoiy himoyadan foydalanishda aniq belgilovchi omillar bormi? Davlat tomonidan maxsus yo'naltirilgan ijtimoiy himoya quyidagi oilalarga nisbatan tadbiiq etiladi:

- **Qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan oila** – global, makro va mikrosotsial omillar tufayli oilaviy hayotning obyektiv ravishda buzgan yoki subyektiv ravishda oila tomonidan qiyin deb qabul qilinadigan vaziyatdagi oila;

- **Boquvchisini yo‘qotgan oila** – vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga layoqatsiz a‘zolaridan iborat oila. Bunda vafot etgan boquvchining qaramog‘ida bo‘lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a‘zolari boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo‘ladi. Farzandlarga va ushbu shaxslarga pensiya ular boquvchining qaramog‘ida turgan-turmaganidan qat‘i nazar tayinlanadi. Marhumning qaramog‘ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag‘ manbaidan mahrum bo‘lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo‘ladilar.

- **Kam ta‘minlangan oila** – “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali aniqlangan, oilaning har bir a‘zosiga jami bir oylik o‘rtacha daromad minimal iste‘mol xarajatlari miqdoridan oshmagan oila. Bunday oilalarga bolalar nafaqasi taqdim etilib, u 12 oy muddatga tayinlanadi, biroq oilaning eng kichik yoxud yagona bolasi tegishlicha o‘n sakkiz yoshga to‘lgan oyning oxirigacha to‘lanadi.

- **To‘liq bo‘lmagan oila** – ota yoki onadan biri (yolg‘iz ota yoki yolg‘iz ona) va bolalardan iborat bo‘lgan oila. Bunday oilalarga ham davlat tomonidan belgilangan tartibda moddiy yordam va nafaqalar to‘lab boriladi.

- **Ajrashish holatidagi oila** – oilaviy ajrashish yoqasidagi va oilaviy ajrashish bilan bog‘liq jarayonlardagi oila. Bunday oilalarga holatidan kelib chiqqan holatda mahalladagi jamoatchilik tuzilmalari orqali yarashtirish choralari ko‘riladi, psixologik yordam va huquqiy himoya taqdim etiladi.

- **Ko‘p bolali oila** – ota-ona yoki ulardan biri bilan birga yashayotgan 18 yoshga to‘lmagan to‘rt va undan ortiq bolalari bo‘lgan oila. Bunda, agar ulardan bir nafari yoki undan ko‘prog‘i ta‘limning kunduzgi shaklida o‘rta maxsus va kasb-hunar yoki oliy ta‘lim olsa, oila ko‘p bolali oila maqomini talaba bolalar 22 yoshga to‘lgunga qadar saqlab qoladi. Davlat ko‘p bolali oilalarga turli imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar berilishini ta‘minlaydi.

- **Nogironligi bor a'zolari mavjud oila** – Oila a'zolaridan kamida bir nafari I yoki II guruh nogironligi bor shaxs sifatida tasniflangan oila. Nogironligi bo'lgan shaxslar va ularga g'amxo'rlik qiluvchi fuqarolar uchun qonunchilikda belgilangan imtiyozlarning yagona ro'yxati shakllantirilgan bo'lib, unga ko'ra, bunday toifadagi insonlarga 81 turdagi ijtimoiy imtiyozlar – ijtimoiy to'lov, kompensatsiya, subsidiya, moddiy yordam, pensiya, nafaqa, ijtimoiy xizmatlar taqdim etiladi⁷.

- **Tibbiy yordamga muhtoj a'zolari bor oila** - Jiddiy surunkali kasalliklarga chalingan yoki shoshilinch jarrohlik amaliyotiga muhtoj oila a'zosi(lari) bor oila. Bunday toifadagi insonlar, xususan xotin-qizlar uchun ham davlat tomonidan ijtimoiy yordam ko'rsatish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Masalan, “Ayollar daftari” tizimi orqali shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj xotin-qizlar uchun belgilangan tartibda tegishli birlamchi tibbiy sanitariya muassasasi tomonidan statsionar yoki ambulator davolash, tibbiy muolaja xarajatlarini to'lab berish hamda davolanish amaliyoti uchun O'zbekiston Respublikasining boshqa hududida joylashgan tibbiy muassasalarga borish-kelish yo'l xarajatlarini qoplab berish belgilab qo'yilgan⁸.

- **Migrant oila** – ota-onasining biri yoki har ikkisi migrant sifatida xorijiy mamalakatga ketgan oila. Bugungi kunda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimi yo'lga qo'yilgan⁹.

- **Yosh oila** – er-xotinning ikkisi ham o'ttiz yoshdan oshmagan oila yoxud farzand (bola) tarbiyalab voyaga yetkazayotgan o'ttiz yoshdan oshmagan yolg'iz otadan yoki yolg'iz onadan iborat bo'lgan oila, shu jumladan nikohdan ajralgan, beva erkak (beva ayol). Bunday oilalarga ham davlat tomonidan tizimli tarzda ijtimoiy yordam ko'rsatib kelinadi. Misol uchun, arzon uy-joylar bilan ta'minlash,

⁷ <https://mehnat.uz/oz/news/nogironligi-bolgan-shaxslar-va-ularga-gamxorlik-qiluvchi-fuqarolar-uchun-qonunchilik-da-belgilangan-imtiyozlarning-yagona-royxati>

⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi 145-sonli “Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/docs/-5932671>

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PQ-149-sonli “Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/docs/-5893253>

imtiyozli ipoteka kreditlari taqdim etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj yosh oilalarga turar joy ijarasi uchun subsidiya ajratish shular jumlasidan.

- **Bir o'zi yashaydigan qariyalar**– 65 yosh va undan katta yoshdagi uy xo'jaligida yolg'iz yashovchi, qarovchisi bo'lmagan erkaklar yoki ayollar. Ularga davlat tomonidan moddiy yordam ko'rsatilib, bunday yordam bola(bolalar)siz yoki barcha bolalari 18 yoshdan katta bo'lgan oilalarga va yakka-yolg'iz fuqarolarga 6 oy muddatga tayinlanadi va to'lanadi.

2. Oilalar va xotin-qizlarga ko'rsatiladigan ijtimoiy himoya turlari

Endi oilalar va xotin-qizlarga ko'rsatiladigan ijtimoiy himoya turlariga to'xtalib o'tsak.

Oilani ijtimoiy himoya qilish qo'llab-quvvatlash **moddiy yordam, sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy bilan ta'minlash, huquqiy himoya va psixologik yordam** kabi keng ko'lamli masalalarni qamrab oladi. Bu jihatlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, oilalar farovonligining umumiy asosini tashkil etadi.

Moddiy yordam

Oilani ijtimoiy himoya qilishning asosiy elementlaridan biri uni moddiy resurslar bilan ta'minlashdir. Bu ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar uchun yaratilgan imtiyozlar, jumladan, soliq imtiyozlari, ijtimoiy sug'urta va kambag'allikka qarshi kurash choralarini o'z ichiga oladi. Oilaning ishonchli moliyaviy bazasi bolalarning barqaror rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi, ularning sifatli ta'lim va tibbiy xizmatdan foydalanishini ta'minlaydi. Oilalarni moddiy qo'llab-quvvatlashning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

1. Nafaqa tizimlari va bolalar nafaqalari: O'zbekistonda kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordamlar bo'yicha arizalar "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Nafaqalar va moddiy yordamlar oilalarning iqtisodiy holatini ma'lum darajada yaxshilashga xizmat qiladi va ijtimoiy himoya tizimida muhim o'rin egallaydi.

2. Soliq imtiyozlari va subsidiyalar: Oilalarga moliyaviy bosimni kamaytirishga qaratilgan soliq imtiyozlarini berish ham moddiy yordamning bir shakli hisoblanib, muhim rol o'ynaydi. Bu bolalar, ularning ta'limi bilan bog'liq soliq imtiyozlari yoki oilalarning moliyaviy ahvolini yaxshilashga qaratilgan soliq yengilliklarini va boshqa ko'rinishdagi davlat subsidiyalarini o'z ichiga olishi mumkin. Misol uchun, boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar (ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan) jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan¹⁰.

3. Ijtimoiy sug'urta: Majburiy ijtimoiy sug'urta va bu yo'nalishdagi davlat yordam dasturlari oilalarga katta moliyaviy xarajatlarsiz sifatli ijtimoiy, xususan tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy sug'urta – davlat tomonidan joriy etiladigan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan keksalar, mehnatga layoqatsizlarni ta'minlash, yordam ko'rsatish tizimi. U kutilmagan ijtimoiy hodisalar turlari (kasallik, baxtsiz hodisalar, nogironlik, keksalik, o'lim hollari), hududiy doirasi (davlat sug'urtasi, mahalliy darajadagi, kasb-tarmoq, xalqaro) bo'yicha turkumlanadi, ko'ngilli va majburiy turlarga bo'linadi¹¹.

4. Kambag'allikka qarshi kurash: “Temir daftar,” “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”, “Mehr daftari”, aholi bandligini ta'minlash dasturlari, pul shaklidagi manzilli yordam kabi kambag'allikni qisqartirishga yo'naltirilgan dasturlar oilalarning iqtisodiy jihatdan zaiflashishiga yo'l qo'ymaslik va kambag'allikdan chiqishi uchun sharoit yaratishga qaratiladi.

Sog'liqni saqlash va ta'lim

Sifatli tibbiy xizmat va ta'lim ijtimoiy himoyaning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanib, barkamol avlodni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bolalarning salomatlik holati, ta'lim va ijtimoiy harakatchanligiga ta'sir qiladi.

Oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda sog'liqni saqlash tizimidagi imtiyozlar:

¹⁰ https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/qanday_oila_kup_bolali_hisoblanadi

¹¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_sug%CA%BBurta

1. **Ehtiyojmand aholi uchun bepul tibbiy yordam va imtiyozlar:**

Ehtiyojmand aholiga, xususan jiddiy surunkali kasalliklarga chalingan yoki shoshilinch jarrohlik amaliyotiga muhtoj a'zolari mavjud oilalarga bepul va sifatli tibbiy yordam ko'rsatish ijtimoiy himoyaning muhim jihati hisoblanadi. Ular uchun sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishni ta'minlaydigan davlat dasturlari asosiy tibbiy xarajatlarni qoplaydigan tibbiy yordam uchun yo'llanma tizimini o'z ichiga oladi. Shuningdek, nogironligi mavjud insonlarni uchun protez va ortopediya buyumlari bilan ta'minlash ham mazkur yo'nalish doirasida qamrab olinadi.

2. **Profilaktik sog'liqni saqlash:** Profilaktik tibbiy xizmatlarni ko'rsatadigan dasturlar oilalar salomatligini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Bunga emlashlar, muntazam tibbiy ko'riklar, patronaj xizmati va malakali mutaxassislar maslahatlari kiradi. Ayollar uchun onkologik skrining, nuroniy onaxonlarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish (2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmon asosida) ham profilaktik tibbiy xizmat hisoblanadi.

3. **Oilaviy salomatlik markazlari:** Oilaviy poliklinikalar, oilaviy sog'liqni saqlash markazlari, sifatli patronaj xizmatini tashkil etish butun oila uchun kompleks tibbiy xizmatlardan foydalanish imkonini beradi. Bu yerda oilalar nafaqat davolanish, balki sog'lom turmush tarzini olib borish bo'yicha maslahatlar ham olishlari mumkin.

Oilani ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ta'lim tizimidagi ijtimoiy himoya mexanizmlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. **Ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlash:** Davlat stipendiyalari, grantlar va boshqa moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllari kam ta'minlangan oilalar farzandlariga oliy ma'lumot olish imkoniyatini beradi.

2. **Erta bolalik ta'lim dasturlari:** Erta bolalik ta'limini rivojlantirish oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda muhim qadamdir. Erta ta'limga yo'naltirilgan davlat dasturlari va maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarning maktab yoshigacha sifatli ta'lim olishlarini ta'minlaydi. Ma'lumot uchun, Respublikamizda mazkur yo'nalishda katta ishlar amalga oshirilib, 2023-yilda bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 2017-yilga nisbatan (27,7 %)

2,5 barobarga ya'ni 71,8 foizga, maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 5 211 tadan 29 420 taga yetkazildi. 6 598 ta davlat (shundan, 49 ta idoralarga qarashli), 833 ta xususiy, 1 313 ta Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat va 20 676 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yilgan¹².

3. **Imtiyozli kvotalar:** Turli kriteriyalar asosida oliy ta'lim muassasalariga kirishda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlariga imtiyozli kvotalar ajratish ham davlatning aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashida katta ahamiyatga ega. Misol uchun, har yili oliy ta'limga kirishda chin yetim bolalar uchun qo'shimcha ravishda bir foizgacha davlat granti asosida qabul kvotalari ajratiladi.

4. **Maxsus ta'lim dasturlari:** Maxsus, inklyuziv ta'limga ehtiyoji mavjud bolalari bo'lgan oilalar qo'shimcha yordamga muhtoj. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun davlatning maxsus ta'lim dasturlari ularning salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradi.

Oilalarning sifatli tibbiy xizmat va ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash nafaqat sog'lom va bilimli avlodni shakllantirish, balki jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Uy-joy va ijtimoiy infratuzilma

Oilalarni uy-joy bilan ta'minlash va ijtimoiy infratuzilmalardan foydalanish ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yana bir muhim tarkibiy qismidir. Uy-joy qurish, shahar atrof-muhitini yaxshilash va jamoat transportini rivojlantirishga oid davlat dasturlari oilalarning farovon hayot kechirishi uchun sharoit yaratib, ularning ijtimoiy integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

1. **Arzon uy-joy dasturlari va jamoat (ijtimoiy) uylari:** Kam ta'minlangan oilalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari ijtimoiy himoyaning asosiy tarkibiy qismidir. Bunga ijtimoiy uy-joylar qurish, ipoteka subsidiyalari yoki ijara imtiyozlarini taqdim etish kabilar kiradi. Misol uchun, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-dekabrda 737-sonli qarori bilan uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni, xususan noturar joylarda istiqomat qilayotgan uy-joyga muhtoj xotin-qizlar va ota-onasidan yoki ularning biridan ayrilgan hamda yolg'iz onasi, yolg'iz otasi yoki

¹² <https://t.me/mdokanal/8809>

boshqa shaxslar qaramog'ida bo'lgan voyaga yetgan uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash chora-tadbirlari belgilab berilgan¹³.

2. **Zaif guruhlar uchun ixtisoslashtirilgan xizmatlar:** Nogironligi bo'lgan insonlar yoki kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalar kabi ijtimoiy himoya muhtoj oilalar maxsus uy-joy sharoitlari va ijtimoiy infratuzilmani talab qilishi mumkin. Misol uchun, mamlakatimizda nogironligi bo'lgan xotin-qizlarga ko'p qavatli arzon uylar imtiyozli ipoteka krediti asosida taqdim etilganda birinchi va ikkinchi qavatlaridan xonadonlar ajratilishi belgilab qo'yilgan¹⁴.

Huquqiy himoya va psixologik yordam

Oilalarning huquqiy himoyasini ta'minlash, ularga psixologik yordam ko'rsatish ijtimoiy siyosatning ajralmas qismidir. Bu oila a'zolarining huquqlarini himoya qiluvchi qonunlar, oiladagi zo'ravonlikning oldini olish choralari, shuningdek, og'ir hayotiy vaziyatlarda psixologik yordam ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Oilalar va xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda huquqiy himoya:

1. **Oiladagi (maishiy) zo'ravonlikdan himoya qilish:** Oilaviy (maishiy) zo'ravonlikning oldini olish, unga qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy asoslarning to'liq yaratilishi, himoya mexanizmlarining to'liq shakllantirilishi oila a'zolarining xavfsizligini ta'minlaydi. Bunga himoya orderlarini berish, jabrlanganlar uchun boshpana va ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar kiradi.

2. **Bepul va sifatli yuridik yordam ko'rsatish:** Ehtiyojmand oilalarga bepul yoki arzon va sifatli yuridik yordam ko'rsatish ularning huquqiy savodxonligini oshishiga, huquq va manfaatlarining sudda himoya qilinishiga yordam beradi.

3. **Bolalar huquqlarini himoya qilish:** Bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik bolalar mehnatining oldini olish, ekspluatatsiyadan himoya qilish va ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash choralari o'z ichiga oladi.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-dekabrda 737-sonli "Uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash hamda Toshkent shahrida boshpanasiz, og'ir turmush sharoitiga tushib qolgan fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/docs/-5760624>

¹⁴ <https://advice.uz/oz/document/1429?keyword=>

Oilani ijtimoiy himoya qilishda psixologik yordam:

1. **Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmati:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4190-son qarori bilan “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqilgan bo‘lib, unda aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini takomillashtirish masalasiga e’tibor qaratilgan¹⁵.

2. **Oilalarni psixologik qo‘llab-quvvatlash:** Davlat tomonidan oilalarni turli inqirozli vaziyatlar, jumladan, tazyiq va zo‘ravonlik, ajrashish, yaqin kishisini yo‘qotish yoki boshqa holatlarda bo‘lgan oilalar, shuningdek yoshlarni oilalarga ruhiy jihatdan tayyorlash, farzand tarbiyasidagi muammolarni yengishda psixologik yordam ko‘rsatish va psixoterapiyadan foydalanish imkoniyatini beruvchi xizmatlar oilalarning psixologik salomatligini ta’minlashga yordam beradi.

3. **Bolalar uchun ruhiy sog‘lomlashtirish dasturlari:** Bolalarga maktablar yoki ixtisoslashgan markazlar orqali psixologik yordam olish imkoniyatini berish ularga hissiy qiyinchiliklarni yengishga va boshqa insonlar bilan sog‘lom munosabat o‘rnatishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda mahalla bo‘g‘inida oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilib, ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlarning ba’zilariga to‘xtalib o‘tamiz.

3. Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish

Bugungi kunda mahallalarda ehtiyojmand aholiga ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish masalasi kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. 2024-yil 20-fevral Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida ijtimoiy himoya sohasidagi xizmatlar qamrovini yanada kengaytirish bo‘yicha ustuvor vazifalar yuzasidan

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4190-sonli “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/docs/-4201081>

videoselektor yig'ilishida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xizmatlar ko'rsatish jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirishga e'tibor qaratildi. Xususan, mahalladagi "ettilik" uchun ijtimoiy xizmatlar bo'yicha yagona savolnoma joriy qilinishi, mahalladagi barcha ijtimoiy xizmatlarni bosqichma-bosqich ijtimoiy xizmat ko'rsatish shartnomasi orqali taqdim etish yo'lga qo'yilishi, 49 ta ijtimoiy xizmat mahallagacha tushirilishi va mahallada ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish elektron platformasi yaratilishi belgilab berildi¹⁶.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi "Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish tizimini yangi bosqichga ko'tarish hamda xotin-qizlarni kasbga o'rgatish ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-300-sonli qarori¹⁷ bilan ***mahalla xotin-qizlar faoli tomonidan mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar belgilab berildi:***

- har bir xonadon ahvolini o'rganib, oilalardagi haqiqiy holat va ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;
- ijtimoiy yordamga muhtoj har bir oilani individual ijtimoiy himoya qilish rejasini ishlab chiqish;
- aholi murojaatlari asosida va ijtimoiy himoya rejasining ijrosini o'rganish jarayonida ijtimoiy xizmatlarning o'z vaqtida va sifatli ko'rsatilishini doimiy nazorat qilib borish;
- murakkab va yuqori texnologik tibbiy amaliyotlarga, nogironligi bo'lgan shaxslarning protez-ortopediya buyumlariga va shu kabi boshqa ijtimoiy xizmatlarga oilalarning ehtiyoji bo'yicha tavsiyalar va buyurtmalar berish;
- ijtimoiy himoyaga mas'ul barcha idoralar tomonidan ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishi ustidan monitoring olib borish.

¹⁶ Ijtimoiy himoyaning yangi tizimi inson qadrini ta'minlashga xizmat qiladi – Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 20-fevral kuni o'tkazilgan ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi ma'ruza // <https://president.uz/oz/lists/view/7041>

¹⁷ <https://lex.uz/docs/-6086363>

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda xotin-qizlar faoli mahalladagi ijtimoiy xodim bilan hamkorlik qilishi maqsadga muvofiq.

Mahallalarda kompleks yondashuv tizimi asosida ijtimoiy xizmatlarni joriy qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha respublika shtabi tashkil etildi va unga ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida quyidagi **vazifalar yuklatildi:**

- oilalardagi ijtimoiy muammolarni hal etishda kompleks yondashuv tizimini yo'lga qo'yish;
- oilalardagi ijtimoiy muammolarni aniqlash uchun xotin-qizlar faoli bilan hamkorlik qilish;
- oilalarni iqtisodiy nochor ahvoldan chiqarish va mehnat orqali barqaror daromad manbai bilan ta'minlash choralarini ko'rish;
- sog'lom hayot tarzini targ'ib qilish hamda tibbiy yordamga muhtoj oilalarga o'z vaqtida sifatli tibbiy ko'mak ko'rsatilishini tashkillashtirish;
- yuridik ko'mak ko'rsatish va huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini ko'rish.

Muvofiqlashtirish shtabining ishchi organi etib Oila va xotin-qizlar qo'mitasi belgilandi.

Muvofiqlashtirish shtabi bir hafta muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hamda tuman (shahar)larda mutasaddi vazirlik, idora va budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining hududiy bo'linmalari mas'ul xodimlaridan iborat Mahallalarda kompleks yondashuv tizimi asosida ijtimoiy xizmatlarni joriy qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha hududiy shtabi faoliyatini tashkil etishi belgilandi.

Hududiy shtablar mahallardagi xotin-qizlar faollari tomonidan fuqarolarning ijtimoiy muammolari bo'yicha kiritilgan tavsiyalar va buyurtmalarning o'z vaqtida ko'rib chiqilishi va tegishli xizmatlarning ko'rsatilishga mas'ul etib belgilanadi.

Mahallalardagi xotin-qizlar faollari har ikki haftada Hududiy shtablarga quyidagi ma'lumotlar kiritib borishi ko'zda tutilgan:

- mahallalarda xonadonlar ahvoli, oilalardagi haqiqiy holat asosida ularning

ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji;

- mahallalardagi oilalarni o'rganish natijalari bo'yicha ularga aniq ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha ma'lumotlar;

- murakkab va yuqori texnologik operatsiyalarga, nogironligi bo'lgan shaxslarning protez-ortopediya buyumlariga va shu kabi boshqa ijtimoiy xizmatlarga oilalarning ehtiyoji bo'yicha tavsiyalar va buyurtmalar;

- mahallalarda xonadonlar ahvolini kuzatib borish hamda aholi murojaatlari asosida ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatilishining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi bo'yicha ma'lumot;

Hududiy shtablar mahallalardagi xotin-qizlar faollaridan kelib tushgan ma'lumotlarni o'z hududi kesimida umumlashtirgan holda ikki kun muddatda ularni Muvofiqlashtirish shtabiga yuboradi.

Muvofiqlashtirish shtabi kelib tushgan ma'lumotlar asosida uch kun muddatda haqiqatda ijtimoiy xizmatga ehtiyojmand bo'lgan oilalarga Hududiy shtab a'zosining mas'ul xodimi tomonidan manzilli ijtimoiy xizmat ko'rsatilishini tashkillashtiradi.

Qarorga asosan, «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimi negizida «**Mahallada ijtimoiy xizmat**» avtomatlashtirilgan maxsus elektron moduli ishga tushirildi.

Mazkur «Mahallada ijtimoiy xizmat» moduli:

- ✓ mahallalarda oilalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida amalga oshirish bo'yicha maxsus elektron dasturiy ta'minot hisoblanadi;

- ✓ foydalanuvchisi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hisoblanadi;

- ✓ «Ijtimoiy himoya yagona reestri» axborot tizimining tarkibiy qismi bo'lib, uning funksional imkoniyatlarini kengaytirish, takomillashtirish hamda texnik qo'llab-quvvatlash Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi;

- ✓ mahallalarda davlat ijtimoiy xizmatini yoki yordamini ko'rsatishda davlat organlari va tashkilotlarining idoralararo elektron hamkorligini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Qaror bilan, mahallalarda xotin-qizlar faollari orqali «Mahallada ijtimoiy xizmat» modulini joriy etishning quyidagi uch bosqichini nazarda tutuvchi tartib belgilandi:

a) birinchi bosqichda — «Mahallada ijtimoiy xizmat» moduli doirasida mahallalarda ijtimoiy xizmatlarga muhtoj bo‘lgan oilalarning ehtiyojmandlik darajasi avtomatlashtirilgan tarzda obyektiv qaror qabul qilish orqali baholanadi.

Bunda, oilalarning ma’lum bir turdagi davlat ijtimoiy xizmatiga bo‘lgan ehtiyoji fuqarolardan qo‘shimcha hujjatlar talab etmagan holda so‘rovnoma tarzda baholash mezonlariga muvofiq aniqlanadi;

b) ikkinchi bosqichda — «Mahallada ijtimoiy xizmat» modulida har bir ijtimoiy xizmatga muhtoj bo‘lgan oilalar uchun individual ijtimoiy rejalar tuziladi.

Bunda, individual ijtimoiy rejalar oilalarga kompleks yoki ma’lum bir turdagi ijtimoiy xizmat ko‘rsatilishiga qarab tuziladi;

v) uchinchi bosqichda — individual ijtimoiy rejalar muvofiq oilalarga ijtimoiy xizmatlarning ko‘rsatilishi jarayoni «Mahallada ijtimoiy xizmat» moduli orqali monitoring qilinadi.

4. Mahallada xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etishda

“Ayollar daftari” tizimining o‘rni

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 145-son qarorida ijtimoiy **ahvoli va turmush sharoiti og‘ir, ishsiz va ijtimoiy faol bo‘lmagan xotin-qizlarni ijtimoiy—huquqiy, psixologik, tibbiy va moddiy qo‘llab-quvvatlash** ko‘zda tutilgan.

“Ayollar daftari” tizimi 2020-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbuslari bilan tashkil etilgan bo‘lib, mazkur tizimning asosiy maqsadi ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Davlatimiz rahbarining quyidagi fikrlari “Ayollar daftari”ning asosiy maqsadini to‘la aks ettiradi:

“Ayollar daftari” bo‘yicha “mahallabay”, “xonadonbay” ishlash usuli orqali har bir mahalla va xonadon kesimida ularning muammolarini ijobiy hal etishimiz shart¹⁸.

Shavkat Mirziyoyev.

“Ayollar daftari” ayollar ijtimoiy maqomini ko‘tarish, ularning imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, mazkur toifadagi kishilarning jamiyat hayotiga integratsiyasi va ijtimoiylashuv jarayonini ta‘minlash, jamiyatda ular faolligini oshirishga qaratilgan davlat siyosatining zamonaviy innovatsion usulidir. Mazkur yangi tizim – ayollarni ijtimoiy, huquqiy, moddiy va ruhiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Ular manfaatlarini muhofaza qilish, ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish uchun ularga imkoniyatlar yaratish, hududlarda o‘z-o‘zini band qilish faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish, ularning kasbiy malakalarini o‘stirish, muammolarini belgilash va markerlash asosida qiyinchiliklarni bartaraf etish yo‘l xaritalari ishlab chiqish, ijtimoiy faollikni taminlashga qaratilgan muhim chora-tadbir bo‘ldi. “Ayollar daftari” ayollarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirishda o‘z andozasiga ega bo‘lib xalq manfaatlarini ta‘minlashning samarali tizimi sifatida vujudga keldi¹⁹.

“Ayollar daftari” tizimiga 2020-2023-yillarda davomida 4 bosqichda ehtiyojmand ayollar turli yo‘nalishlar bo‘yicha kiritilgan bo‘lib, mazkur tizim orqali ijtimoiy yordam ko‘rsatilayotgan xotin-qizlar ulushi yildan yilga ortib bormoqda. 2022-yilda “Ayollar daftari”ning 3-bosqichiga **644 489 nafar** xotin-qizlar kiritilgan bo‘lsa, 2023-yilda “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning soni **1 000 779 nafar**ga yetdi. 2023-yil 1-dekabr holatiga ko‘ra “Ayollar daftari”ning 4-bosqichiga kiritilgan ayollarning **99,3 foizi (993 807 nafari)** belgilangan tartibda individual dastur asosida ijtimoiy yordam olgan.

Xususan, **1-toifa** – ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar sifatida e‘tirof etilgan **424 236 nafar** ayollarning **99,8 foiziga** yordam ko‘rsatilgan.

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 08.03.2021 // <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/1102>

¹⁹ Musurmanova O., To‘ychiyeva G. “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ni shakllantirish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Toshkent: YOSHLAR NASHRIYOT UYI – 2020

Tadbirkorlik qilish istagidagi (2-toifa) **49 555 nafar** ayollarning **98,7 foiziga** o‘z tadbirkorlik faoliyatini boshlashlari uchun imkoniyat yaratib berilgan.


3-toifadagi boquvchisi bo‘lmagan ehtiyojmand **3 866 nafar** xotin-qizlarning **3 841 nafariga** yordam berilgan.

4-toifa – ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo‘lgan, shuningdek tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand **204 572 nafar** xotin-qizlarning **98,7 foiziga** ijtimoiy yordam ko‘rsatilgan, **2 222 nafarining** uy-joylari ta‘minlab berilgan.

5-toifa – uy-joyga muhtoj ehtiyojmand **9 006 nafar** xotin-qizlarning **96,1 foiziga** yordam berilgan. Shundan **1 481 nafar** xotin-qizlarning uy-joy bilan ta‘minlangan, **7 175 nafarining** ijara kompensatsiyasi to‘lab berilgan.

Qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlarning **86 650 nafari** **6-toifaga** kiritilgan bo‘lib, ularning **86 342 nafariga** yordam berildi, **4 160 nafarining** tomorqadan unumli foydalanishlari uchun ko‘maklashildi.

Hududlar kesimida “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning sonini quyidagi diagrammada ko‘rishimiz mumkin:



1-rasm. Hududlar kesimida “Ayollar daftari”ning 4-bosqichiga kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlar soni (nafar)

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 145-son qarorida “Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan barcha xotin-qizlarga ularning murojaatiga asosan barcha xotin-qizlarga **huquqiy, tibbiy va psixologik yordam** ko‘rsatilishi belgilangan. “Ayollar daftari” yuritilishi bo‘yicha **sektorlar rahbarlari hamda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi** mas‘ul hisoblanishi belgilab qo‘yildi. Shuningdek, “Ayollar daftari”ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun mutasaddi tashkilotlar **quyidagi vazifalarni** ustuvor ravishda amalga oshirishi belgilab qo‘yildi:

- xotin-qizlarning bandligini ta‘minlash;
- tomorqadan daromad manbai sifatida foydalanishi uchun ko‘maklashish;
- ularni tadbirkorlikka jalb qilish;
- moddiy yordam ko‘rsatish;
- turar joy ijarasi uchun kompensatsiya to‘lash;
- ijtimoiy uylarga joylashtirish va ularning uy-joylarini ta‘mirlashga ko‘maklashish;
- tibbiy, huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatish.

Qaror asosida **“Ayollar daftari”ni yuritish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibi to‘g‘risidagi nizom** qabul qilindi. Unga ko‘ra, **“Ayollar daftari” tizimi** — ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha chora-tadbirlar majmui ekanligi belgilab qo‘yildi.

Xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash va “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlashda mahalla xotin-qizlar faoli tomonidan quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan ishsiz xotin-qizlarning muammolarini

aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda "Ayollar daftari" tizimi asosida ishlarni olib boradi;

hududidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj, ehtiyojmand xotin-qizlarni aniqlash maqsadida har yili yanvar oyida uyma-uy yurish orqali oilalarni ijtimoiy holatini o'rganadi hamda o'rganish natijalariga ko'ra so'rovnoma-anketa to'ldirib, sektor ishchi guruhiga taqdim qiladi;

xotin-qizlarning murojaatlari, shu jumladan, "Ayollar maslahat kengashi"ga murojaat qilgan xotin-qizlarning muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlarini o'rganadi;

"Ayollar daftari"ga kiritiladigan xotin-qizlar ro'yxatini shakllantiradi, bunda "Ayollar daftari"ga 30 yoshdan oshgan **6 toifadagi** xotin-qizlar kiritilishiga ahamiyat qaratadi;

xonadonbay o'rganishlar o'tkazish orqali "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va amaliy yordam berishda ishtirok etadi;

aniqlangan muammolarning tegishliligiga ko'ra, mutasaddi idora va tashkilotlarga ularning yechimi bo'yicha murojaat qiladi va ayrim toifadagi muammolarni hal etishda belgilangan tartibda hal etish bo'yicha manzilli chora-tadbirlarni ko'radi;

sektorlar rahbarlari bilan birgalikda "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarga bir martalik moddiy yordam berish miqdorlari (summasi) ko'rsatilgan ro'yxatni tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limiga taqdim etadi;

tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limidan muhtoj xotin-qizlarga to'lanadigan bir martalik moddiy yordamni oyma-oy to'lash grafigi nusxasini hamda to'langan bir martalik moddiy yordam to'g'risidagi yopilgan vedomostning nusxasini oladi;

turar joy uchun ijara kompensatsiyasini to'lab berish bo'yicha talabnomalar shakllantiradi hamda sektorlar rahbarlari va tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'iga taqdim etadi;

xotin-qizlarni "Ayollar daftari"dan chiqarish yuzasidan takliflarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ishlarni mahalla darajasida muvofiqlashtirishda ishtirok etadi;

anketa-so‘rovnomalarni boshqa tashkilotlarning ma‘lumotlari bilan solishtirishda ishtirok etadi;

“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning individual dasturlari va xotin-qizlarning muammolarini bartaraf etishga qaratilgan “Yo‘l xaritasi” loyihasini tayyorlashda ishtirok etadi;

“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning individual dasturga kiritilgan masalalari to‘liq hal etilishini kuzatib boradi va ayollarning xal etilmagan masalalari bo‘yicha sektor rahbari va tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘iga taklif kiritadi.

Mahalla xotin-qizlar faoli “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar uchun quyidagi yo‘nalishlarda mablag‘ ajratilishida ko‘maklashuvchi mas‘ul hisoblanadi:

– **ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar uchun** kasb-hunarga ega bo‘lmagan ishsiz xotin-qizlarni kasb-hunarga o‘qitish, qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish kurslariga jalb etish, zarur hollarda, sektor rahbari xulosasi asosida, bir martalik moddiy yordam berish;

– **tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan ehtiyojmand xotin-qizlar uchun** tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarni maxsus o‘qitish dasturi bo‘yicha o‘qitilishini ta‘minlash;

– **boquvchisi bo‘lmagan ehtiyojmand xotin-qizlar uchun** bir martalik moddiy yordam berish, sektor rahbari xulosasi asosida, og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlarning uy-joyini ta‘mirlash;

– **ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo‘lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar uchun** bir martalik moddiy yordam berish, sektor rahbari xulosasi asosida, og‘ir turmush sharoitidagi xotin-qizlarning uy-joyini ta‘mirlash;

– **uy-joyga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar uchun** turar joy ijarasi uchun kompensatsiya to‘lash, ipoteka krediti bo‘yicha boshlang‘ich badalni to‘lab berish

va foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish hamda ipoteka krediti bo'yicha boshlang'ich badalni to'lab berish, uy-joy bilan ta'minlash, sektor rahbari xulosasi asosida, bir martalik moddiy yordam berish uchun mablag' ajratish;

– qaramog'ida nogironligi bo'lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin-qizlar uchun bir martalik moddiy yordam berish;

Mahalla xotin-qizlar faoli "Ayollar daftari"ga kiritilgan barcha xotin-qizlar uchun:

tibbiy yordam ko'rsatish zarurati bo'lganda, belgilangan tartibda tegishli birlamchi tibbiy sanitariya muassasasi tomonidan statsionar yoki ambulator davolash;

davlat budjeti mablag'lari hisobiga tibbiy yordam ko'rsatiladigan imtiyozli toifaga kiradigan "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar, shuningdek ularning voyaga yetmagan farzandlarini o'rnatilgan tartibda elektron navbatga qo'yish orqali viloyat yoki respublika darajasida tibbiy muassasalarda davolash;

"Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlar va (yoki) ularning voyaga yetmagan (qaramog'ida I guruh nogironligi bo'lgan farzandlarining yoshidan qat'iy nazar) farzandlariga davolash, dori-darmon olib berish yoki murakkab jarrohlik amaliyotlari uchun mablag' zarur bo'lgan holatlarda tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi va sektor rahbari xulosalari bilan tibbiy muolaja xarajatlarini to'lab berish;

"Ayollar daftari"ga kiritilgan og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan, nogironligi bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlar va ularning farzandlarini reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlash;

"Ayollar daftari"ga kiritilgan I va II guruh nogironligi bo'lgan yoki surunkali hamda yuqumli kasalliklarga chalingan ehtiyojmand xotin-qizlarning va (yoki) ularning voyaga yetmagan (qaramog'ida I guruh nogironligi bo'lgan farzandlarining yoshidan qat'iy nazar) farzandlarining, lozim bo'lganda I guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga hamrohlik qiluvchining davolanish amaliyoti uchun O'zbekiston Respublikasining boshqa hududida joylashgan tibbiy muassasalarga borish-kelish yo'l xarajatlarini qoplab berish;

“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning muammolaridan kelib chiqib, huquqiy yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlar, jumladan tug‘ilganlik haqida guvohnoma va fuqarolik pasportini olish, sudga da’vo arizasi kiritgani uchun undiriladigan davlat boji to‘lovlari va boshqa xarajatlar sektor rahbari xulosasiga asosan to‘lab berish;

“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar uchun madaniy-ma’rifiy, sport va boshqa tadbirlar tashkil etadi;

“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning sayohatlarini tashkil etishda sayohatning davomiyligi, borish-kelish sharoitidan kelib chiqqan holda ro‘yxat shakllantiradi.

5. Mahalla xotin-qizlar faolining oilalar va xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishda hamkorlik yo‘nalishlari

Mahalla xotin-qizlar faolining asosiy vazifalaridan biri – *ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni, og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, ularning uy-joy sharoitlarini yaxshilashga ko‘maklashish*²⁰ hamda *yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatishni ijtimoiy xodim bilan birgalikda tashkil etish*²¹ hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish orqali xotin-qizlar faoli mahallada oilalarga nisbatan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiradi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda mahalladagi xotin-qizlar faoli quyidagi yo‘nalishlarda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda faoliyat olib borishi talab etiladi:

“Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi bilan hamkorlikda:

²⁰ Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi majlisining 2023-yil 24-noyabrdagi 8-sonli majlisi bayonnomasi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 01-22/2-06/2646-sonli xati)

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-son “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/docs/-6705763>

- Mahalladagi ijtimoiy yordamga muhtoj har bir oilaning individual ijtimoiy himoya qilish rejasini ishlab chiqishda ishtirok etadi, mazkur reja asosida amaliy choralarini ko‘rishda hamkorlik qiladi;

- Murakkab tibbiy amaliyotlarga muhtoj bo‘lgan ehtiyojmand xotin-qizlarga tegishli tibbiy xizmatlar ko‘rsatish, protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya texnik vositalari bilan bosqichma-bosqich ta‘minlash choralarini ko‘radi;

- Yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan ayollarni “Muruvvat” va “Saxovat” uylariga joylashtirish, ularni sanatoriylarda sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish va boshqa ijtimoiy-maishiy xizmatlarni ko‘rsatishda hamkorlik qiladi;

- Tazyiq va zo‘ravonlikdan, odam savdosidan jabr ko‘rgan, mehnat migratsiyasidan qaytgan xotin-qizlarga tibbiy, ijtimoiy psixologik xizmat ko‘rsatilishini hamda zarur hollarda ularni tegishli reabilitatsiya markazlariga joylashtirishga ko‘maklashadi.

Tuman (shahar) aholi bandligiga ko‘maklashish markazi bilan birgalikda:

- Mahallada mavjud ishsiz ayollarni o‘z mahallasi hamda yaqin hududlardagi bo‘sh ish o‘rinlari, ulardagi mehnat sharoitlari, haq to‘lash miqdori va mehnat sohasiga oid boshqa ma‘lumotlardan xabardor qiladi va ularning bandligini ta‘minlash choralarini ko‘radi;

- Mahallasida kasb egallash istagidagi xotin-qizlarni zamonaviy, talabgir yo‘nalishlar bo‘yicha kasb-hunarga o‘qitishga ko‘maklashadi;

- Ishlash istagida bo‘lgan, lekin ayni vaqtda band bo‘lmagan xotin-qizlarni xohishlarini inobatga olgan holda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb etish choralarini ko‘radi.

Tuman (shahar) mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari bilan birgalikda:

- Xotin-qizlar, xususan, “Ayollar daftari”ga kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlarning tadbirkorlikka yo‘naltiradi, ularga belgilangan tartibda kredit va subsidiya ajratish, tadbirkor xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatadi.

Tijorat banklari bilan birgalikda:

- mahalladagi xotin-qizlar, shu jumladan, “Ayollar daftari”ga aynan shu yo‘nalish bo‘yicha kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlarning imtiyozli kredit olishiga ko‘maklashadi, imtiyozli kreditlardan samarali foydalanish va o‘z vaqtida so‘ndirilishi bo‘yicha tegishli tartibda chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) bo‘limi bilan birgalikda:

- Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yosh xotin-qizlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiyasi qilinishi va moslashuviga ko‘maklashadi;

- oliy ta‘limga kirish bilan bog‘liq xotin-qizlarga yaratilgan imtiyozlar va yangiliklar bo‘yicha aholi orasida targ‘ibot ishlarini olib boradi.

Tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi, oilaviy poliklinikalar bilan hamkorlikda:

- Mahallada ehtiyojmand oilalar uchun sifatli patronaj xizmatlari ko‘rsatilishini ta‘minlash chora-tadbirlarini ko‘radi;

- Mahallada xotin-qizlar orasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi umummilliy harakati doirasida targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini tashkil etishda hamkorlik qiladi;

- Mahalladagi nuroniy onaxonlarning salomatligini oshirish va ularni chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish ishlarini tashkil etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi bilan hamkorlikda:

- Kechki smenada ishlaydigan xotin-qizlarning maktabgacha ta‘lim yoshidagi farzandlarini ta‘lim muassasalariga joylashtirish choralari ko‘radi;

- Mahallada istiqomat qiluvchi umumta‘lim muassasalarida inklyuziv sharoitda ta‘lim olayotgan qizlarni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlarini tashkil etishda ishtirok etadi;

- Mehnat migranti sifatida xorijga ketgan oilalarning farzandlariga vasiylik tayinlanganlik holatini o‘rganib borish, ularning fanlarni o‘zlashtirish jarayonlarini

nazorat qilish va ko‘maklashish hamda bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish choralarini ko‘rishda ishtirok etadi.

Tuman (shahar) ichki ishlar bo‘limi bilan hamkorlikda:

- Mahalla hududida yashovchi tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarning huquqlarini birgalikda himoya qiladi, tazyiq va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslar bilan profilaktik, tuzatish ishlarini olib boorish choralarini ko‘radi;

- Xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida targ‘ibot tadbirlarini amalga oshiradi.

Prokuratura bilan hamkorlikda:

- Mahallada xotin-qizlarning buzilgan huquqlarini tiklash, xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirish, huquqiy yordam ko‘rsatish hamda aliment to‘lovlari bilan bog‘liq muammolari mavjud ayollarga amaliy yordam ko‘rsatish chora-tadbirlarini ko‘radi.

Tuman (shahar) adliya bo‘limi bilan birgalikda:

- Mahallada huquqiy yordamga muhtoj xotin-qizlarga zarur huquqiy yordam ko‘rsatishni tashkillashtiradi.

Shuningdek, mahalla xotin-qizlar faoli mahalladagi “yettilik”ning barcha a’zolari – **mahalla raisi** (ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni birgalikda aniqlash va faoliyatni muvofiqlashtirish yo‘nalishida), **hokim yordamchisi** (“Ayollar daftari”dagi xotin-qizlarga imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratish bo‘yicha), **profilaktika inspektori** (tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish bo‘yicha), **yoshlar yetakchisi** (yosh oilalar bilan birgalikda ishlashda), **ijtimoiy xodim** va **soliq inspektori** bilan ham oilalarga ijtimoiy yordam berish borasida hamkorlik qiladi. Mazkur yo‘nalishda eng asosiy ishlar mahallaga birlashtirilgan **ijtimoiy xodim** bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Xotin-qizlar faoli va ijtimoiy xodim birgalikda oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

Xotin-qizlar faoli ijtimoiy xodim bilan ijtimoiy xizmatlar muhtoj bo‘lgan ehtiyojmand, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarning, yolg‘iz

keksalar, nogironligi bo'lgan ayollarning, ota-onasi migratsiyada bo'lgan, boquvchisini yo'qotgan oilalardagi bolalarning ijtimoiy himoyasi bo'yicha ishlaydi.

Ijtimoiy xodim xotin-qizlar faoli bilan birgalikda:

- murakkab tibbiy amaliyotlarga muhtoj bo'lgan ehtiyojmand xotin-qizlarga zarur tibbiy xizmatlar ko'rsatilishini tashkil etadi;

- nogironligi bo'lgan xotin-qizlarni protez-ortopediya buyumlari bilan ta'minlash choralarini ko'radi;

- tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya markazlariga, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan ayollarni "Muruvvat" va "Saxovat" uylariga joylashtirish, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, mehnat faxriylarini sanatoriylarda sog'lomlashtirish choralarini ko'radi;

- ota-onasi migratsiyada bo'lgan, boquvchisini yo'qotgan oilalardagi bolalarga zarur tibbiy, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlaydi.

Mahalladagi xotin-qizlar faolining oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda mahallada faoliyat yuritayotgan jamoatchilik tuzilmalari bilan samarali hamkorlik qilishi ham katta ahamiyatga ega. Bunday jamoatchilik tuzilmalari sifatida "Oqila ayollar" harakati, xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya, "Ayollar maslahat kengashlari", "Ota-onalar universiteti", korxonalar va tashkilotlardagi xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilotlar va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Mazkur jamoatchilik tashkilotlaridan "**Ayollar maslahat kengashi**" bevosita og'ir ijtimoiy holatga tushib qolgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashi belgilangan. "Ayollar maslahat kengashi"ning asosiy vazifalari orasida ayollarni ijtimoiy himoya qilish, "Ayollar daftari"ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq quyidagi vazifalar ham mavjud:

- ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning muammolarini o'rganish va ularni hal etishga ko'maklashish, zarur hollarda "Ayollar daftari"ga kiritish uchun anketa-so'rovnoma to'ldirish;

- ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni tadbirkorlikka o'qitish, biznesga oid namunaviy rejalarni ishlab chiqish va kredit olishda ularga ko'maklashish;

- “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlar bilan manzilli ishlarni amalga oshirish, ularga psixologik maslahatlar berib borish;

- xotin-qizlarning, ayniqsa, “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning muammolari o‘z vaqtida bartaraf etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

Mahalladagi xotin-qizlar faoli “Ayollar maslahat kengashi” faoliyatini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi.

GLOSSARIY

1. **Ijtimoiy yordam** – davlat va jamiyatning qariligi, sog‘lig‘i, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik uchun vositalar bilan yetarli ta‘minlanmagani tufayli yordamga muhtoj fuqarolar to‘g‘risida g‘amxo‘rliqi. Ijtimoiy yordam odamlar farovonligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan vaziyatlarning oldini olish, boshqarish va bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lib, ma‘lum guruhlarni qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan davlat xizmatlari to‘plamini o‘z ichiga oladi.

2. **Ijtimoiy nafaqa** — kam ta‘minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordam (14 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga nafaqalar, bola 2 yoshga to‘lgunga qadar bola parvarishi bo‘yicha nafaqa, kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam va boshqalar).

3. **“Mahallada ijtimoiy xizmat” moduli** – mahallalarda oilalarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida amalga oshirish bo‘yicha maxsus elektron dasturiy ta‘minot.

4. **“Ayollar daftari” tizimi** — ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan ishsiz xotinqizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha chora-tadbirlar majmui.

5. **“Ayollar daftari”** — ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan ishsiz xotinqizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo‘yicha ma‘lumotlar bazasi.

6. **“Individual dastur”** — “Ayollar daftari” ro‘yxatiga kiritilgan har bir xotinqiz hamda ularga ko‘rsatiladigan amaliy yordam turlari, davri (sanasi), miqdori (summasi, foizi va boshqalar) va amaliy yordamlar monitoringi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar majmui;

7. **“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi** — idoralararo elektron o‘zaro hamkorlikni qo‘llagan holda kam ta‘minlangan oilalarni aniqlash, ularga bolalar nafaqasi va moddiy yordam tayinlash hamda davlat tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va yordamni olish uchun murojaat qiluvchilar va

oluvchilar to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish amalga oshiriladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimi;

8. Ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalar — “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi orqali kam ta'minlangan deb e'tirof etilgan oilalar, a'zolari nogironligi bo'lgan shaxslardan iborat bo'lgan oilalar, boquvchisini yo'qotgan oilalar, bolaning ota-onasi kvotalar bo'yicha mintaqalarga taqsimlangan ijtimoiy soha xodimlari bo'lgan oilalar, to'rt yoki undan ko'p bolalari bo'lgan oilalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son // <https://www.lex.uz/docs/-6445145>
2. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrdagi 938-XII-son “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonuni // <https://lex.uz/acts/-112314>
3. Ijtimoiy himoyaning yangi tizimi inson qadrini ta’minlashga xizmat qiladi – Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 20-fevral kuni o‘tkazilgan ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruza // <https://president.uz/oz/lists/view/7041>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 08.03.2021 // <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/1102>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PQ-149-sonli “Xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini va ularning oila a’zolarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/docs/-5893253>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi PQ-300-sonli “Mahallalarda ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam berish tizimini yangi bosqichga ko‘tarish hamda xotin-qizlarni kasbga o‘rgatish ishlarini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/docs/-6086363>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4190-sonli “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/docs/-4201081>
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-martdagi 145-sonli “Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari

milliy bazasi // <https://lex.uz/docs/-5932671>

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-dekabrdagi 737-sonli “Uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash hamda Toshkent shahrida boshpanasiz, og‘ir turmush sharoitiga tushib qolgan fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/docs/-5760624>

10. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

11. Musurmanova O., To‘ychiyeva G. “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ni shakllantirish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Toshkent: YOSHLAR NASHRIYOT UYI – 2020

12. Normamatova M. Ijtimoiy ish nazariyasi. . – SamDU, 2020.

13. UNRISD. 2010. Combating Poverty and Inequality: Structural Change, Social Policy and Politics.

14. “EUROPEAN SOCIAL SERVICES”. scholar.googleusercontent.com

15. <https://advice.uz/oz/document/1429?keyword=>

16. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/qanday_oila_kup_bolali_hi_soblanadi

17. <https://mehnat.uz/oz/news/nogironligi-bolgan-shaxslar-va-ularga-gamxorlik-qiluvchi-fuqarolar-uchun-qonunchilikda-belgilangan-imtiyozlarning-yagona-royxati>

18. <https://t.me/mdokanal/8809>